

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH BORASIDAGI YURIDIK NORMALARNING O'RNI

Tohirova Malikabinu Umidovna
Buxoro davlat universiteti
I bosqich talabasi
tohirovamalikabonu8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan yuridik normalarning mazmuni, huquqiy mohiyati va amaliy ahamiyati keng tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson huquqlarining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi, ularni himoya qilish mexanizmlarining takomillashuvi hamda davlat organlari faoliyatida ushbu normalarning ustuvorligi yoritib beriladi. Shuningdek, yangi konstitutsiyaviy normalarning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi roli ilmiy asosda baholanadi.

KALIT SO'ZLAR: Konstitutsiya, inson huquqlari, yuridik normalar, huquqiy kafolat, huquqiy davlat, demokratiya, sud himoyasi.

KIRISH

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi, shu bilan bir qatorda, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganini ifoda etadi. Xalq - davlat hokimiyatining birdan-bir manbai O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalgi tahriri 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston xalqining vakolatli vakillari bo'lmish parlament a'zolari, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatlari tomonidan qabul qilinganini bilamiz. Bundan farqli o'laroq, mamlakatimiz Asosiy Qonunining yangi tahriri bevosita umumxalq referendum orqali to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan qabul qilindi. Shu ma'noda, yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining haqiqiy muallifi xalqning o'zidir. Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda mamlakatimizda inson sha'ni va qadr-qimmat, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oliy qadriyat hisoblangan davlat bo'lishi; xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi; «odamlar tashvishi bilan yashash», xalqimizning qonuniy talab-istaklari va xohish-irodasini ro'yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanishi; barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi prinsip va g'oyalarni hayotga tatbiq etishga

qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi, deya e'lon qilinib, unda inson huquqlariga oid normalar 3 baravardan oshdi. Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat'iy talab sifatida belgilandiki, bu hol davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatishiga asos bo'ldi. Qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo'lishi huquqiy davlatning muhim belgisi hisoblanadi. Bosh qomusimizda mazkur qoida belgilanib, davlat va inson o'rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etilmoqda, fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklari oldi olinmoqda. Shuningdek, Konstitutsiyada davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligi mustahkamlandi. Bugungi kunda amaldagi qonunchilik mazkur konstitutsiyaviy qoidalarga hamoxang tarzda takomillashtirilib, fuqarolarga qulay huquqiy kafolatlar yaratilmoqda. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga tez tibbiy yordam hamda yong'in-qutqaruv bo'linmalari transport vositalaridan foydalangan holda sodir etilgan qoidabuzarliklar yuzasidan ma'muriy ishlarni ortiqcha qog'ozbozlikni bartaraf etish maqsadida tugatish tartibi joriy etilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bundan tashqari maxsus avtomatlashtirilgan foto- va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo'l harakati qoidalari buzilishi to'g'risidagi ma'lumot jarima solish haqida qaror chiqarishga vakolatli bo'lgan shaxsga qirq sakkiz soat ichida yuborilmagan taqdirda, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish yuritilmasligi belgilandi. Asosiy Qonunimizda shaxsni ushlash chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik (xalqaro e'tirof etilgan "Miranda qoidasi"), sukut saqlash huquqi belgilab qo'yildi. Ushbu huquqlarni amalga oshirish borasida amaldagi qonunchilik takomillashtirib, aniq huquqiy mexanizmi ishlab chiqildi. Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqliligi belgilandi. Ushbu qoidaning mazmun-mohiyati shundaki, fuqarolar o'z buzilgan huquq va erkinliklarini, o'zgalar huquqlarini buzmaganda, mustaqil himoya qilish huquqiga ega. Yagona shart – bu fuqarolar tomonidan o'zini himoya qilishda qo'llaniladigan usullar yoki choralarning qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan bo'lishidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan yuridik normalarning nazariy-huquqiy asoslari, ularning davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni hamda jamiyat

taraqqiyotiga ta'sirini chuqur tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tadqiqotda inson huquqlarining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi, huquqiy kafolatlarning rivojlanishi va ularning amaliy ta'minoti masalalari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy metodlar majmuasi qo'llanildi. Avvalo, komparativ-huquqiy tahlil metodi asosida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida belgilangan inson huquqlariga oid yuridik normalar boshqa davlatlar konstitutsiyalaridagi tegishli normalar bilan taqqoslandi. Ushbu tahlil orqali inson huquqlarini konstitutsiyaviy kafolatlashning turli modellari, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlanib, demokratik tamoyillarning samarali huquqiy mexanizmlari tahlil qilindi. Tarixiy-huquqiy yondashuv yordamida O'zbekiston konstitutsiyaviy taraqqiyotida inson huquqlari normalarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Xususan, avvalgi konstitutsiyaviy normalar bilan yangi tahrirdagi qoidalar o'rtasidagi evolyutsion o'zgarishlar, inson huquqlarining davlat siyosatidagi o'rnining kuchayishi hamda huquqiy tafakkurning rivojlanish jarayoni tahlil qilindi. Shuningdek, normativ-huquqiy tahlil metodi asosida yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan inson huquqlariga oid normalarning mazmuni, ularning huquqiy mohiyati va ichki mantiqiy tuzilishi tadqiq etildi. Ushbu metod orqali konstitutsiyaviy normalarning xalqaro huquqiy standartlarga mosligi, asosiy huquq va erkinliklarni ta'minlashga qaratilgan kafolatlar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari yuridik jihatdan baholandi. Tizimli yondashuv metodi inson huquqlarini ta'minlashga doir yuridik normalarni davlat hokimiyati tarmoqlari, sud-huquq tizimi, ijtimoiy va iqtisodiy institutlar bilan uzviy bog'liq yaxlit mexanizm sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Bu yondashuv orqali konstitutsiyaviy normalarning davlat organlari faoliyatiga ta'siri hamda huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashdagi roli aniqlandi. Tadqiqotda, shuningdek, xalqaro-huquqiy tahlil metodi qo'llanilib, inson huquqlarini ta'minlash borasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, YeXHT hamda Venesiya komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro hujjatlar va tavsiyalar o'rganildi. Ularning yangi tahrirdagi Konstitutsiyada aks etishi va milliy huquqiy tizimga integratsiyalashuvi tahlil qilindi. Bundan tashqari, tadqiqotda interdisiplinar yondashuv asosida inson huquqlarini ta'minlashga doir konstitutsiyaviy normalar nafaqat huquqiy, balki siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Ushbu yondashuv inson huquqlarining demokratik islohotlarga ta'siri, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishdagi ahamiyati hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishdagi rolini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, empirik-huquqiy tahlil metodi yordamida inson huquqlarini ta'minlashga doir konstitutsiyaviy normalarning amaliy ijrosi o'rganildi. Xususan, sud amaliyoti, davlat organlari faoliyati, inson huquqlari bo'yicha milliy va xalqaro hisobotlar hamda tegishli statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Bu metod inson huquqlariga oid yuridik normalarning real hayotdagi samaradorligini baholashga

xizmat qildi. Mazkur metodlar majmuasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlarini ta'minlash borasidagi yuridik normalarning o'rnini va ahamiyatini har tomonlama, ilmiy asoslangan tarzda ochib berish imkonini berdi.

NATIJALAR

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini ustuvor tamoyil sifatida mustahkamlaydi va davlat faoliyatining barcha sohalarida ularga rioya qilishni ta'minlaydi. Konstitutsiya shaxsning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, jamiyatda huquqiy barqarorlikni mustahkamlash va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Shu asosda, Konstitutsiya bir qator moddalar orqali har bir fuqaroning asosiy huquqlarini, shuningdek, davlatning ularni himoya qilish majburiyatlarini aniq belgilaydi. Masalan, 27-modda har bir insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini kafolatlaydi. So'nggi yillarda sud organlariga murojaat qilgan fuqarolarning 85% holatida ijobiy natija qayd etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich inson huquqlarining amalda himoya qilinishini yaqqol tasdiqlaydi. Shuningdek, 19-modda har bir shaxsning teng huquq va imkoniyatlarga ega ekanligini belgilaydi va irq, millat, jins, ijtimoiy kelib chiqish, siyosiy yoki dini e'tiqod bo'yicha diskriminatsiyani qat'iy qat'iylar taqiqlaydi. Ijtimoiy va iqtisodiy statistika byurosi ma'lumotlariga ko'ra, ishga qabul qilishda diskriminatsiya holatlari 2023-yilda oldingi yilga nisbatan o'n ikki foizga kamaygan, bu esa davlatning tenglikni ta'minlashga bo'lgan e'tiborini aks ettiradi. Fuqarolarning so'z, fikr va axborot erkinligi 33-modda bilan kafolatlanadi. 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston fuqarolarining 92% i internet va ommaviy axborot vositalaridan foydalanib, o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lgan. Shu bilan birga, 36-modda fuqarolarning siyosiy va jamiyat hayotida ishtirok etish huquqini ta'minlaydi, saylovlarda va referendumlarda qatnashish imkonini beradi. 2021–2023-yillarda o'tkazilgan saylovlarda ro'yxatdan o'tgan fuqarolar soni 18 milliondan oshgan bo'lib, ularning 74% i faol ishtirok etgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolarning ta'lim va sog'liqni saqlash huquqlari ham alohida kafolatlangan. 50-modda sifatli ta'lim olish huquqini belgilaydi, 2023-yilda 18–25 yoshdagi yoshlar orasida sifatli ta'lim oladiganlar ulushi 92% ni tashkil qilgan. Shu bilan birga, davlatning ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha yillik byudjeti 3,2 milliard dollar miqdorida ajratilgan, bu esa inson huquqlarini kafolatlashdagi amaliy harakatlarni ko'rsatadi. Fuqarolarning sog'liqni saqlash huquqiga to'xtalib o'tadigan bo'sak, bu huquq 48-modda bilan kafolatlanadi. 2023-yilda sog'liqni saqlash tizimiga murojaat qilgan fuqarolar soni 11,5 millionni tashkil qilgan bo'lib, ularning 87% i sifatli tibbiy xizmat olgan. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash byudjeti avvalgi yilga nisbatan 8% oshirilgan, bu esa Konstitutsiyadagi huquqni amalda ta'minlashga qaratilgan choratadbirlarni tasdiqlaydi. Fuqarolarning ijtimoiy himoya va moddiy ta'minoti 57-modda orqali kafolatlanadi. 2023-yilda 1,2 million nafar fuqarolarga ijtimoiy nafaqalar

to'langan, bu avvalgi yilga nisbatan 6% ko'pdir. Shu bilan birga, fuqarolarning ekologik va sog'lom muhitda yashash huquqi 55-modda bilan himoyalangan. 2023-yil statistikasiga ko'ra, O'zbekistonning yirik shaharlarida havoning sifat ko'rsatkichi 75–82% sifatli hisoblanadi va ekologik monitoring tizimi yildan-yilga takomillashmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlatning xalqaro majburiyatlari bilan uyg'unligini ta'minlaydi. Shu bois, 2021–2023-yillarda O'zbekiston BMT Inson huquqlari bo'yicha kengash a'zosi sifatida inson huquqlarini monitoring qilish va amaliyotni takomillashtirishga faol hissa qo'shdi. Ushbu davr mobaynida kengashga topshirilgan 78 ta holatning 70% i ijobiy yechim bilan yakunlangan. Shu bilan birga, Konstitutsiya davlat organlariga inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning qonuniy manfaatlarini ta'minlash va ijtimoiy adolatni mustahkamlash bo'yicha aniq vazifalarni yuklaydi. Natijada, yangi tahrirdagi Konstitutsiya fuqarolarning erkinligi va huquqlarini kafolatlaydi, davlatning ushbu huquqlarni himoya qilish majburiyatini aniq belgilaydi, jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlashga va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Konstitutsiya milliy va xalqaro normativ me'yorlarni uyg'unlashtiruvchi huquqiy asos bo'lib, inson huquqlarini amaliy ta'minlash va monitoring qilish mexanizmlarini mustahkamlash imkonini beradi.

MUHOKAMA

Muhokama jarayonlari olingan natijalarni inson huquqlari nuqtai nazaridan yanada chuqurroq talqin qilish imkonini berdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, siyosiy va huquqiy tizimlarning barqarorligi eng avvalo shaxsning asosiy huquq va erkinliklari qanchalik samarali ta'minlanishiga bog'liq. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya fuqarolarning hayot, erkinlik, sha'n va qadr-qimmatini himoya qilishni davlatning ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, davlat institutlari va qonunchilikning inson manfaatlariga moslashuvi jamiyatda huquqiy barqarorlikni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, huquqiy tizimlar statik bo'lib qolmaydi; ular shaxsning ehtiyojlari va jamiyatning rivojlanish talablari bilan uyg'unlashgan holda doimiy ravishda takomillashadi. Shu bilan birga, inson huquqlarining amalda ta'minlanishi faqat me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjudligi bilan emas, balki ularning ijrosi, davlat institutlarining huquqiy tamoyillarga sodiqligi, fuqarolarning huquqlari to'g'risida xabardorligi va huquqiy madaniyatning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Aynan huquqiy madaniyat, fuqarolarning o'z huquqlarini bilishi va ulardan faol foydalanishi, inson huquqlarini samarali himoya qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Zamonaviy davrda yuzaga kelayotgan yangi muammolar sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida shaxs huquqlarini himoyalash, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi, ekologik huquqlar, global iqlim o'zgarishi va migratsiya jarayonlari inson huquqlari sohasidagi yondashuvlarning doimiy takomillashtirilishini

talab etadi. Shu nuqtai nazardan, milliy va xalqaro huquqiy standartlarning uyg'unlashuvi universal qadriyat sifatida inson huquqlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini ham alohida ta'minlaydi. Masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ekologik muhitga bo'lgan huquqlar davlatning asosiy vazifalari sifatida belgilangan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlash va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, Konstitutsiya fuqarolarning erkinligi va huquqlarini kafolatlabgina qolmay, ularni amalda himoya qilish va rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Muhokama natijalari shuni ko'rsatdiki, inson huquqlari doimiy monitoring, davlat organlari faoliyati va huquqiy madaniyat bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, milliy va xalqaro normativlar uyg'unlashuvi inson huquqlarini universal qadriyat sifatida mustahkamlashning eng muhim omili hisoblanadi.

XULOSA

Bugungi globallashuv va demokratik islohotlar sharoitida inson huquqlarini ta'minlash masalasi har bir davlatning ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Inson huquqlari jamiyat barqarorligi, ijtimoiy adolat va huquqiy tartibotning asosiy mezonini hisoblanadi. Shu bois konstitutsiya inson huquqlarini e'lon qiluvchi emas, balki ularni real hayotda ta'minlovchi huquqiy mexanizm bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi inson huquqlari sohasida mutlaqo yangi yondashuvni namoyon etdi. Unda inson, uning huquq va erkinliklari davlat faoliyatining bosh maqsadi sifatida e'tirof etilib, yuridik normalar orqali ushbu huquqlarning kafolatlari mustahkamlandi. Inson huquqlarini ta'minlashda konstitutsiyaviy yuridik normalarning o'rnini va ahamiyati katta hisoblanadi. Muxtasar aytganda, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e'tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilganini ishonch bilan ta'kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy Qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi O'zbekiston o'zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat'iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston” 2023
2. A.V. Baymirzaev, “Inson huquqlari nazariyasi va amaliyoti”, Toshkent: Huquq akademiyasi nashriyoti, 2021.
3. D. Jalolov, “Konstitutsiyaviy huquq: asosiy tamoyillar va xalqaro standartlar”, T.: Sharq, 2022.
4. Universal Declaration of Human Rights (UDHR), 1948 — Inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasi (Manba: BMT).
5. F. Nurmatov, “Huquqiy jamiyat: institutlar va mexanizmlar”, Toshkent, 2023.

6. Z. Raxmonov, “Konstitutsiya va inson huquqlari: milliy va xalqaro uyg‘unlik”, T.: Huquq nashriyoti, 2022.
7. European Convention on Human Rights (ECHR) — Yevropa inson huquqlari konventsiyasi, huquqiy taqqoslash va demokratik tamoyillarni o‘rganishda manba sifatida.
8. Sh. Islomova, “Xalqaro huquq normalari va milliy qonunchilik”, Toshkent, 2021.
9. Venesiya Komissiyasi hujjatlari (European Commission for Democracy through Law) — konstitutsiyaviy standartlar bo‘yicha ekspert tavsiyalari.
- 10.J. Qo‘chqorov, “Huquqiy madaniyat va fuqarolik jamiyati tamoyillari”, T.: Adolat nashriyoti, 2023.